

HARMONY OF STAGE AND HEART: ARTISTIC ANALYSIS OF MAKSET ESIMBETOV'S WORK

2nd-year student of the Variety Acting program, Nukus branch of UzDSMI

JANABAEV MIYIRBEK

Scientific supervisor: Lecturer of the Department of "Acting Skills" of the

Nukus branch of UzDSMI

BAKHIEVA BIYBINAZ

Annotation. This article provides a comprehensive overview of the life and creative work of Maksset Esimbetov, a prominent representative of Karakalpak theatrical art and an Honored Artist of Karakalpakstan.

Keywords: Karakalpak theater, stage art, acting skills, Makset Esimbetov, theatrical creativity, national culture.

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq teatr san'atining taniqli namoyandasi, Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan artist Maxset Esimbetovning hayoti, ijodiy faoliyati va teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq teatri, sahna san'ati, aktyorlik mahorati, Maxset Esimbetov, teatr ijodi, milliy madaniyat.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются жизнь и творческая деятельность известного представителя каракалпакского театрального искусства, заслуженного артиста Каракалпакстана Максета Эсимбетова.

Ключевые слова: каракалпакский театр, сценическое искусство, актёрское мастерство, Максет Эсимбетов, театральное творчество, национальная культура.

Sahna — bu faqatgina aktyor chiqib ro'l ijro etadigan joy emas. Sahna inson qalbining aks-sadosi, hayotning achchiq-shirin haqiqatlari mujassam bo'ladigan muqaddas maskandir. Unda inson taqdiri, orzu-umidlari, iztiroblari va quvonchlari jonlanadi. Sahnadagi har bir so'z, har bir harakat tomoshabinning ruhiy olamiga ta'sir

etadi, uni o'ylashga, his qilishga undaydi. Ana shunday yuksak vazifani o'z zimmasiga olgan teatr san'atida fidoyilik bilan xizmat qilgan san'atkorlar xalq qalbida mangu yashaydi.

Qoraqalpoq teatr san'ati tarixida ana shunday fidoyi, iste'dodli va o'z kasbiga sodiq aktyorlardan biri — Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan artist Maxset Esimbetovdir. U o'zining serqirra iste'dodi, sahnaga bo'lgan cheksiz muhabbati va mehnatsevarligi bilan milliy teatrimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan san'atkor sifatida tanilgan.

Maxset Esimbetov 1960-yil 1-dekabr kuni Nukus shahrida dunyoga kelgan. Bolaligidan u san'atga, ayniqsa musiqaga katta qiziqish bildirgan. Otasi sovg'a qilgan garmon cholg'usi uning ijodiy yo'lini belgilab bergan ilk qadam bo'ldi. Garmon sadolari orqali u kuy va ohangning inson ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini his qila boshlaydi. Keyinchalik gitara va fortepiano chalishni ham o'rganib, musiqa orqali his-tuyg'ularni ifodalash mahoratini rivojlantiradi. Musiqa bilan shug'ullanish Maxset Esimbetovning sahnadagi ichki ritmi, obrazning ruhiy holatini chuqur his etishiga katta yordam bergan. Bu jihat uning keyingi aktyorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabni tugatgach, Maxset Esimbetov Toshkent poligrafiya bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bu yerda u intizom, mas'uliyat va mehnatsevarlikni o'zida shakllantiradi. Bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, o'z mutaxassisligi bo'yicha Leningradda bir yillik stajirovkada bo'lib qaytadi. Ushbu tajriba uning dunyoqarashini kengaytirib, san'atga bo'lgan munosabatini yanada chuqurlashtiradi.

1980-yilda Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining aktyorlik fakultetiga o'qishga kirishi uning hayotida yangi sahifani ochadi. Talabalik davrida u jahon teatr san'ati, klassik va zamonaviy dramaturgiya, ayniqsa rus teatri tarixini chuqur o'rganadi. Shekspir, Molyer, Ostrovskiy, Chexov asarlari bilan yaqindan tanishib, aktyorlik mahoratining nazariy va amaliy asoslarini puxta egallaydi.

Aynan shu davrda uning qoraqalpoq dramaturgiyasini boshqa tillarga, xususan rus tiliga tarjima qilishga bo‘lgan qiziqishi paydo bo‘ladi. Bu esa keyinchalik milliy teatrimizni kengroq auditoriyaga tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1985-yilda institutni tamomlab, Maxset Esimbetov Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida ish faoliyatini boshlaydi. U umrining oxirigacha ushbu teatrga sodiq qolib, aktyor sifatida fidoyilik bilan xizmat qiladi. Bu teatr uning ikkinchi uyiga, sahna esa hayotining mazmuniga aylanadi. Aktyor o‘zining mehnatsevarligi, sahnaga bo‘lgan talabchanligi va mas’uliyati bilan jamoa orasida tezda hurmat qozonadi. U ijro etgan har bir rol ustida chuqur ishlaydi, obrazning ichki dunyosini ochishga intiladi. Natijada sahnada sun’iylikdan xoli, jonli va ishonarli obrazlar yarata oladi. Maxset Esimbetov ijodida yaratilgan obrazlar rang-barangligi va chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. U dramatik, komedik, tarixiy va zamonaviy obrazlarni birdek mahorat bilan ijro etgan serqirra aktyor edi. U ijro etgan muhim ro‘llar qatoriga Molyerning “Saqov qiz ham tabib” asaridagi Luka, Sagerelining “Xanuma”sidagi Akop, Korsunkiyning “Mashaqqatli yillar”idagi Seva, Bashbekovning “Temir xotin”idagi Qoshqar, Berdaqning “Adolatga xiyonat”idagi Baltash, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asaridagi Sulton Boyazid, Najim Dawqaraevning “Alpamis”idagi Jamal, “Kelin”dagi Darimbet, “Ajiniyoz”dagi Panaxan kabi ko‘plab obrazlarni kiritish mumkin. Bu rollar orqali aktyor inson xarakterining turli qirralarini, ichki ziddiyatlarini va ruhiy kechinmalarini yuksak darajada namoyon eta oldi.

Maxset Esimbetov aktyorlik bilan bir qatorda rejissyor sifatida ham o‘zini sinab ko‘rdi. Matmuratovning “O‘mirbek va tazsha” pyesasini sahnalashtirib, unda Qazi rolini ham o‘zi ijro etdi. Ushbu spektakl tomoshabinlar va mutaxassislar tomonidan iliq kutib olindi. Bu esa uning teatr san’atiga keng qamrovli ijodkor sifatida qaraganini ko‘rsatadi.

Aktyorning umr yo‘ldoshi-Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan aktrisa Sag‘indikova Jumagul bo‘lib, ular nafaqat oilada, balki sahnada ham ijodiy hamkor

bo‘lishgan. Ular birgalikda bir qancha spektakllarda partner sifatida ishtirok etib, tomoshabinlarga unutilmas sahna lahzalarini taqdim etishgan. Ularning besh nafar farzandi ham ota-onasining yo‘lidan borib, san’at va madaniyat sohasida tahsil olib, faoliyat yuritmoqda. Bu holat Maxset Esimbetov ijodiy merosining davomiyligini yaqqol ko‘rsatadi.

Maxset Esimbetovning teatr san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi davlat tomonidan yuqori baholangan. U 2000-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining “Hurmat yorlig‘i”, 2008-yilda esa “Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

2016-yil 10-yanvar kuni iste’dodli aktyor Maxset Esimbetov 55 yoshida hayotdan ko‘z yumdi. Ammo u yaratgan sahna obrazlari, teatr san’atiga bo‘lgan fidoyiligi va samimiy mehnati xalq xotirasida mangu yashaydi. U qoraqalpoq teatr san’ati tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk san’atkor sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri tarixi. – Nukus: Qoraqalpoqstan nashriyoti, 2005.
2. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri repertuari va aktyorlari. – Nukus, 2010.
3. Esimbetov M. haqidagi xotiralar va intervyular//“Qoraqalpoqstan madeniyati” gazetasi, 2000–2015-yillar.
4. Qoraqalpoq teatr san’ati rivoji masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Nukus, 2012.
5. Sag‘indikova J. Sahna va hayot. Xotiralar. – Nukus, 2014.
6. Bakhieva, Biybinaz, and Ramuza Qazaqbaeva. "PANTOMIMA KÓRKEM-ÓNERINIŇ PAYDA BOLÍW TARÍYXÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ." Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi 2 (2025): 584-590.